

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI**

**M.SHOUMAROVA, T.ABDILLAYEV**

**ASALARICHILIK  
JIHOZLARI,  
TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»

2016

**UDK: 638.1(075)**

**KBK: 46.91-4**

**S-80**

*Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar  
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan*

### **Taqrizchilar:**

**A.Isamuhamedov** — Qibray qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji asalarichilik mutaxassisligi bo'yicha maxsus fan o'qituvchisi;

**B.Qaxramonov** — Toshkent davlat agrar universiteti «Zootexniya» kafedrasining dotsenti.

#### **Shoumarova M.**

Asalarichilik jihozlari, texnik xizmat ko'rsatish: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / M.Shoumarova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent: «NISO POLIGRAF», 2016. – 64 b.

Ushbu o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlarida 3620602 «Zootexnik-asalarichi» kasbini egallash uchun ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun yozilgan. Kitob Respublika Vazirlar Mahkamasi 2009-yili qabul qilgan «Respublikada 2009-2011-yillarda asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar haqida» dasturiga mos tuzilgan bo'lib unda asalarichilikda ishlatiladigan asosiy jihozlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanmadan asalarichilik bilan shug'ullanayotgan yoshlar ham foydalanishi mumkin.

**UDK: 638.1(075)**

**KBK: 46.91-4**

---

---

## KIRISH

Toshkent shahrida 2012-yil oktabr oyida o'tkazilgan respublika fermerlarining qurultoyi mamlakatimiz qishloq xo'jaligining hamma sohalarini, shu jumladan, asalarichilikni rivojlantirish bo'yicha strategiyani qabul qildi. Asalarichilik bilan elimiz qadimgi zamonlardan beri shug'ullanib kelgan va bu ishda boy tajriba orttirgan. Bizlarga Beruniy, Ibn Sino va boshqa o'tmishdagi buyuk olimlarimiz meros qilib qoldirgan kitoblarda asalarichilik mahsulotlari, ya'ni asal, propolis, asalari suti va boshqalarning turli dardlarga shifo bo'lishi yozilgan.

Asalarichilik bilan qishloqlarimizda ko'plab havaskor hamyurtlarimiz shug'ullanishadi. Respublikamizning tog'li hududlari yuz minglab gektar maydonni egallaydi. Bu yerlarda 300 dan ortiq turdagi shira beradigan o'simliklar o'sadi. Asalga boy flora 100 mingdan ortiq asalari oilasini boqish imkonini beradi, yil sayin minglab tonna sifatli asal olish mumkin. O'zbekistonda ko'paytiriladigan mahalliy asalarilar issiq iqlimga chidamli, boshqa oila asalarilari bilan qo'shnichilikka yaxshi moslashadi, ularni parvarishlash boshqa mintaqalardagi zotlarga nisbatan osonroq bo'ladi.

Demak, asalarichilik bilan shug'ullanadigan fermerlik xo'jaliklarining sonini ko'paytirib, asalari beradigan shifobaxsh mahsulotlar, xalqimiz dasturxonini yetarli miqdorda ta'minlashi mumkin bo'ladi. Shu sababli, Respublikamiz rahbariyati qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari asalarichilik sohasi uchun ko'proq mutaxassislar tayyorlashga e'tibor berib kelmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmasi qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari asalarichi mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish uchun yozilgan. Unda asalarichilikda ishlatiladigan deyarli hamma jihozlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

---

---

## **1-§. Asalarilarni parvarishlash vositalari**

Respublikamiz mintaqalarida mart oyida asalari oilasi asosiy nazoratdan o'tkaziladi. Bahorgi kunlar isib, soyadagi harorat 14°C dan oshganidan so'ng arixonadagi asalari oilasining ahvoli ko'zdan kechiriladi. Undagi oziq zaxirasi, oilaning katta-kichikligi, ona asalarining bor-yo'qligi aniqlanadi. Bu ishlarni, ayniqsa, bundan keyingi oylarda bajariladigan ishlarni sifatli bajarish uchun, asalari biologiyasini yaxshi bilish kerak. Kuzgi mavsumda asalarichilikdan ko'proq mahsulot (asal, mum, gul changi) olish uchun asalari oilasi uchun qulay sharoitlar tug'dirish lozim, ya'ni vaziyatga mos arixona turini tanlash, uni to'g'ri sozlash, arixonalarining joyini o'zgartirishda asalarilarni bezovta qilmaydigan texnik vositalardan foydalanish kabi ishlarni to'g'ri tashkillashtirish talab qilinadi. Demak, birinchi navbatda, texnik vositalar va boshqa anjomlarning tuzilishini, ularni to'g'ri sozlashni bilish kerak.

Arixona asalarining uyidir. Asalarilar oila-oila bo'lib yashashadi. Asalarilar butun umrini arixonada o'tkazadi, yosh avlodini o'stiradi, o'zlarini hamda yoshlarni oziqlantirish uchun asal to'playdi. Asalari uyi, ulg'ayadigan yosh oila uchun kichik bo'lib qolsa, ona asalari oz tuxum qo'yadi. Natijada, ishchi asalarilar soni kamayib, to'planadigan mahsulot miqdori yetarli bo'lmasdan qoladi. Yozning issiq kunlarida asalarilarda torxonadan chiqib ketish xohishi paydo bo'ladi va ko'pincha oilaning bir bo'lagi ko'chib ketadi.


Asalarilar madaniylashtirilishidan oldin daraxtlarda tabiiy holda, daraxt g'ovaklaridagi inlarda yashashgan. Bunday sharoitda asalari hayotiga insonning ijobiy ta'sir qilish imkoniyati bo'lmagan. Dunyo asalarichi olimlari asalari oilasi uchun qulay sharoit tug'diradigan arixonalar konstruksiyasini ishlab chiqqishgan. Arixonalar so'ngi ikki-uch asr davomida ko'p marta

takomillashtirilgan. 1-rasmda amaliyotda ishlatilayotgan ko'p qavatli arixona nusxalari ko'rsatilgan. Ular ko'pincha ko'p qavatli taxlangan bir necha qavatlar hamda qavatlar ustiga qo'yilgan magazin uloqlardan iborat. Magazin uloqlari qavatlardan kichikroq bo'lib, qavat ustiga o'rnatilib, uni uzaytirib, arixonada katta oila yashash imkonini beradigan, zaxira xona hisoblanadi. Ayrim vaziyatlarda esa yotiq arixonalardan foydalaniladi. Arixona ichiga asalari romlari joylashtiriladi.

Arixona bevosita yerga emas, maxsus taglikka qo'yilishi kerak. Taglik yog'ochdan 2-rasmdagidek yasaladi.


Arixona bo'laklarga oson ajratilib, yig'ishtiriladigan holda tayyorlanadi. Bunday arixona ichidagi romlarni, kerak bo'lsa, asalarichi tashqariga chiqarib kuzatish, tuzatish, tozalash imkoniga ega bo'ladi. Bu asalarichi uchun qulay bo'lib, uning ishini yengillashtiradi. Asalarichi asalari oilasi faoliyatini o'ziga qulay tarzda tashkillashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Arixona issiq bo'lishi, atrof-muhitdagi harorat tez o'zgarsa ham asalarilarni himoya qilish kerak. Qishning eng sovuq kunlarida ham arixona ichkarisidagi harorat  $+14^{\circ}\text{C}$  dan past bo'lmashligini, yosh avlodni parvarishlashda esa  $34-35^{\circ}\text{C}$  harorat



1-rasm. Ko'p qavatli arixona turlari:

*a* — bir qavatli, ikki magazinli; 1 — qavat; 2 — magazinlar;  
3 — qo'nish taxtasi. *b* — ikki qavatli, uch magazinli; *d* — to'rt qavatli.




2-rasm. Ko'p qavatli arixona ostiga qo'yiladigan taglik sxemasi.

bo'lishini, asalarilarning o'zlari ta'minlab turishi uchun imkon tug'dirilgan bo'lishi kerak. Arixona quruq bo'lishi lozim. Yog'in-garchilik vaqtlarida ham uning ichiga namlik kirmasligi kerak. Asalarilar qish vaqtida nam arixonalarda nobud bo'ladi, yozda u yerdan uchib ketib qoladi.

Arixona hajmi asalarilar oilasining turli fasllardagi biologik ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Arixonadagi romlar soni yosh avlod o'stirishda lichinkalar bemaol sig'adigan, qish kunlari asalarilar koptoksimon shaklda g'ujlanib yashashiga xalaqit bermaydigan bo'lishi lozim. Arixona hajmini o'zgartirishni korpusni magazin yordamida uzaytirish yoki diafragma (to'sqich taxta)lar bilan to'sish hisobiga erishiladi.

Yotiq arixonalarda romlar bir-ikki, ko'p qavatlilarda bir nechta qavatlar ko'rinishida joylashtiriladi. Magazin uloqlari yotiq arixonaning ustiga emas, yon tomoniga ulanadi. Magazin ichiga joylashtiriladigan romlarning o'lchamlari, asosiy qavat ichiga qo'yiladigan romlarga teng bo'ladi. Yotiq arixona uzun qutiga o'xshaydi. Yotiq arixona tuzilishi 3-rasmda ko'rsatilgan.

Arixona, ya'ni asalari uyi, asalarizordagi asosiy jihoz hisoblanadi. Shu sababli, uning tuzilishiga, sifatiga ma'lum talablar qo'yiladi. Birinchi navbatda, u asalarichi ishi uchun qulay bo'lishi kerak. Uning tomi va magazinlari arixona korpusidan oson ajraladigan, romlar, diafragma(to'sqich taxta)lar, qavat shipi yengil sug'irilib olinadigan bo'lishi kerak.



3-rasm. Yotiq arixona:

*a* – tashqi ko‘rinishi; *b* – ko‘ndalangiga kesimi; *d* – uzunasiga kesimi.

Xo‘jalikdagi arixonalar bir xil o‘lchamlarga ega bo‘lgani, ular qismlarini (romlarini) o‘zaro almashtirish imkoni bo‘lgani ma’quldir. Asalarichi urinmasligi uchun, arixona qismlari yengil bo‘lishi kerak.

Arixonalar arzon, ammo ko‘p yillar xizmat qiladigan etib yasaladi. Uzoq muddatlarda foydalanish uchun, arixonalarni o‘z vaqtida ta’mirlab turish lozim. Issiq va qurg‘oq iqlimda yog‘och materiallar deformatsiyalanib, shaklini, o‘lchamlarini o‘zgartiradi, tirqishlar paydo bo‘ladi. Bunday tirqishlarni yelimlab, bo‘yash lozim.

Original-maket «DAVR nashriyoti» MChJda tayyorlandi.  
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Bosishga 2016-yil 15-sentabrda ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 90^{1/16}$ .  
Ofset qog'ozi. «Times» garniturası. Shartli bosma tabog'i. 4,0.  
Nashr tabog'i. 3,72. Adadi 491 nusxa. Buyurtma № 527.

«NISO POLIGRAF» nashriyoti  
Litsenziya raqami AI № 265. 24.04.2015.

«NISO POLIGRAF» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.